



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

# 2026-YIL

IYUN/6-SON, II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqov**ich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayev**ich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayev**ich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulaton Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOYIY NATIJALARI .....	12
<b>Urazov Jamshidjon Sa’dullayevich</b>	
<b>Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUN’IY INTELLEKT VA PLATFORMA EKOTIZIMLARINING KORXONA INNOVATSIYALARIDAGI O’RNI .....	16
<b>Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi</b>	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ECONOMIC DAMAGE OF ECOLOGICAL HAZARDS IN URBAN AREAS: CONCEPTUAL SHORTCOMINGS OF NON-MARKET VALUATION METHODS AND THE INTEGRAL DAMAGE FUNCTION APPROACH .....	20
<b>Abbos Saydullaev</b>	
<b>Iqboloy Choriyorova</b>	
O’ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOT IMKONIYATLARI .....	31
<b>Ibragimova Rayxon Tojibayevna</b>	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA “ZAYLANMA IQTISODIYOT (CIRCULAR ECONOMY)” MODELINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	36
<b>Elnoraxon Muminova Abdukurimovna</b>	
<b>Sarvinov Mamatojiyeva Dilshodjon qizi</b>	
TRANSPORT KORIDORLARINI BOSHQARISHDA LOGISTIKA MENEJMENTINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO’LLARI .....	42
<b>Umarova Dilfuza Rahmatulla qizi</b>	
ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВ ЦИФРОВИЗАЦИИ МИСЕ-СЕКТОРА В УЗБЕКИСТАНЕ .....	47
<b>Нарзуллаева Фариза Акмалевна</b>	
ECONOMETRIC MODELING OF THE DYNAMICS OF RETAIL TRADE TURNOVER UNDER THE INFLUENCE OF REAL HOUSEHOLD INCOME USING A LOGARITHMIC FUNCTION .....	53
<b>Gaybullayev Sarvar Uktam ugli</b>	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING MAZMUN-MOHİYATI VA NAZARIY ASOSLARI .....	59
<b>Mizamova Umida Jamoliddin qizi</b>	
SPORT TAKOMILLASHUVI BOSQICHIDAGI FUTBOLCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATIDA INNOVATSION VOSITALARNING O’RNI .....	64
<b>Mamatraimov Anvar Chorshanbiyavich</b>	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI VIZUAL MATERIALLAR VOSITASIDA O’RGATISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	72
<b>Olimova Shahlo Bahodir qizi</b>	
<b>Inomova Mahliyo Yusuf qizi</b>	
INCREASING THE ATTRACTIVENESS OF DIVIDEND POLICY IN UZBEKISTAN COMPANIES .....	76
<b>Akmal Komiljonovich Shermukhamedov</b>	
XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA’SIRI .....	81
<b>Musurmonqulov Muhammad Ural o’g’li</b>	
TEMIR YO’L ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY MEXANIZMI .....	86
<b>Baymatov Atxam Axmadaliyevich</b>	



MENEJMENT NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI.....	92
<b>Saidova Xilolaxon Rashidjon qizi</b>	
OPPORTUNITIES FOR USING MARKETING STRATEGIES TO ENSURE THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF HOTEL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN .....	97
<b>Sardor Kuvandikov</b>	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОГРАММ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ .....	106
<b>Абдуллаева Зульфия Иззатовна</b>	
NAMANGAN VILOYATINING HUDUDIYIQTISODIY TUZILMASI VA SHAHARLAR TIZIMINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.....	113
<b>Ahmadjanov Ilyosbek Ilhomjon o'g'li</b>	
JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMI VA XALQARO TAJRIBALAR QIYOSIY TAHLILI .....	117
<b>G'afforov Kamronbek</b>	
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJNING SINGULYAR VA BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI .....	123
<b>Bobojonova Zarnigor Shokirovna</b>	
MINTAQAVIY IQTISODIY JARAYONLARNI BAHOLASHDA DSGE MODELINING QASHQADARYO SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN TAHLILIIY KOMPONENTLARI.....	132
<b>Muxitdinov Xudayar Suyunovich</b>	
<b>Quvatova Gulzoda Faxriddin qizi</b>	
O'ZBEKISTONDA TIBBIY TURIZM VA TIBBIY XIZMATLAR TIZIMINING MAZMUNI .....	137
<b>Ergasheva Iroda Ibrohim qizi</b>	
FOYDA SOLIG'INING BANKLAR MOLIYAVIY HOLATIGA TA'SIRINI BAHOLASH .....	141
<b>Maxmudov Omon To'xtayevich</b>	



# FOYDA SOLIG'INING BANKLAR MOLIYAVIY HOLATIGA TA'SIRINI BAHOLASH

Maxmudov Omon To'xtayevich

Termiz davlat universiteti,

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

E-mail: maxmudovomon78@gmail.com

Tel.: +998 93 999 82 44

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada foyda solig'ining tijorat banklari moliyaviy holatiga ta'siri ATB "Sanoat-qurilish banki" misolida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida bankning 2020–2025-yillar kesimidagi soliq to'langunga qadar bo'lgan foydasi, foyda solig'i, sof foydasi hamda samarali soliq stavkasi (ETR) dinamikasi o'rganilib, soliq yukining rentabellik ko'rsatkichlari (ROE, ROA) va kapital jamg'arilishiga ta'siri baholangan. Shuningdek, xavf qiymati (Cost of Risk) o'zgaruvchanligi sharoitida soliq yukining bank foydasiga ta'siri hamda xususiylashtirishga tayyorgarlik jarayonida soliq omilining ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida bankning soliq yukini optimallashtirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** foyda solig'i, samarali soliq stavkasi, tijorat banklari, rentabellik, ROE, ROA, soliq yuki, xavf qiymati, sof foyda, moliyaviy barqarorlik.

**Abstract.** This article analyzes the impact of profit tax on the financial position of commercial banks, using JSC "Sanoat-qurilish Bank" as a case study. The study examines the dynamics of the bank's profit before tax, profit tax, net profit, and effective tax rate (ETR) over the period 2020–2025, and assesses the impact of taxation on profitability indicators (ROE and ROA) as well as capital accumulation. Furthermore, the paper discusses the effect of the tax burden on bank profitability under conditions of fluctuating cost of risk and highlights the significance of tax factors in the context of the bank's privatization process. Based on the findings, scientifically grounded recommendations are proposed for optimizing the bank's tax burden and strengthening its financial stability.

**Keywords:** profit tax, effective tax rate, commercial banks, profitability, ROE, ROA, tax burden, cost of risk, net profit, financial stability.

**Аннотация.** В данной статье на примере АКБ «Саноат-қурилиш банк» проанализировано влияние налога на прибыль на финансовое состояние коммерческих банков. В ходе исследования рассмотрена динамика прибыли до налогообложения, налога на прибыль, чистой прибыли и эффективной налоговой ставки (ETR) за 2020–2025 годы, а также оценено влияние налоговой нагрузки на показатели рентабельности (ROE, ROA) и накопление капитала. Кроме того, раскрыта роль налогового фактора в условиях изменения стоимости риска (Cost of Risk) и в процессе подготовки банка к приватизации. По результатам исследования разработаны научно обоснованные рекомендации по оптимизации налоговой нагрузки и укреплению финансовой устойчивости банка.

**Ключевые слова:** налог на прибыль, эффективная налоговая ставка, коммерческие банки, рентабельность, ROE, ROA, налоговая нагрузка, стоимость риска, чистая прибыль, финансовая устойчивость.

## KIRISH

Foyda solig'i tijorat banklarining sof moliyaviy natijasini shakllantiruvchi eng muhim omillardan biri bo'lib, u bevosita bankning kapital jamg'arish qobiliyati, dividend siyosati va rentabellik ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatadi. Soliq to'langunga qadar bo'lgan foyda bilan sof foyda o'rtasidagi farqni belgilovchi soliq yuki bankning ichki manbalar hisobidan o'z kapitalini mustahkamlash imkoniyatlarini cheklashi yoki kengaytirishi mumkin.

Bank sektorida soliqning ta'siri sanoat va savdo korxonalaridagidan ma'lum darajada farq qiladi. Buning asosiy sababi shundaki, banklarda soliq to'langunga qadar bo'lgan foyda kredit risklari bo'yicha zaxiralarni shakllantirish hajmiga sezilarli darajada bog'liq bo'ladi. Xavf darajasi yuqori bo'lgan sharoitlarda soliq to'langunga qadar bo'lgan foyda keskin kamayishi mumkin, biroq soliq majburiyatlari har doim ham shu sur'atda qisqarmaydi. Natijada samarali soliq stavkasi (Effective Tax Rate – ETR) o'zgaruvchan tus oladi.



Mazkur maqolada tadqiqot obyekti sifatida ATB “Sanoat-qurilish banki” tanlab olindi. Bank kredit portfeli hajmi bo'yicha respublikaning yetakchi tijorat banklari qatoriga kiradi hamda bank sektoridagi ulushi 10,8 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, u davlat ishtirokidagi tizimli ahamiyatga ega banklardan biri hisoblanadi.

Bankning 2027-yilga mo'ljallangan xususiylashtirish jarayoniga tayyorgarlik ko'rayotgani, shuningdek davlat ulushining 40 foizini Milliy investitsiya jamg'armasi tasarrufiga, Franklin Templeton kompaniyasi boshqaruvi ostida o'tkazish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida soliq yukining bank kapitali, rentabelligi va moliyaviy barqarorligiga ta'sirini baholash alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi<sup>1</sup>.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliqqa tortishning korxonalar va moliyaviy institutlar moliyaviy holatiga ta'siri masalasi zamonaviy korporativ moliya nazariyasining markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishning nazariy asoslari F. Modigliani va M. Miller tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular 1963-yildagi ilmiy ishlarida foyda solig'i mavjud sharoitda qarz mablag'lari hisobiga yuzaga keladigan soliq qalqoni (tax shield) firma qiymatini oshirishini matematik jihatdan asoslab berganlar. Keyinchalik M. Miller (1977) o'zining “Debt and Taxes” asarida shaxsiy va korporativ soliqlarning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda kapital tarkibining muvozanatli modeli konsepsiyasini taklif etdi. Mazkur nazariy paradigma soliq omilini korxonaning moliyaviy qarorlaridan ajralmas tarkibiy qism sifatida talqin qiladi.

Soliqning kapital tarkibi va investitsion faoliyatga ta'sirini empirik jihatdan o'rganish A. Auerbach tadqiqotlarida rivojlantirilgan bo'lib, unda korporativ soliqlarning kapital qiymati va investitsiya rag'batlariga ta'sir mexanizmlari tahlil qilingan. M. Devereux va R. Griffith esa samarali soliq stavkalarini (Effective Tax Rates) hisoblashning metodologik asoslarini ishlab chiqib, nominal soliq stavkasi real soliq yukini to'liq aks ettirmasligini ko'rsatganlar. J. Graham korporativ soliq qalqonining iqtisodiy qiymatini empirik baholab, soliq yukining korxonalar qarz siyosatiga ta'sirini miqdoriy jihatdan asoslab berdi. Ushbu tadqiqotlar natijasida samarali soliq stavkasi moliyaviy tahlilning muhim instrumentlaridan biriga aylandi.

Bank sektorida soliq omilining ta'siri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu yo'nalishda qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. R. Gropp va F. Heider (2010) bank kapitali tarkibini belgilovchi omillarni empirik tahlil qilib, soliq omili nofinansial korxonalaridagi kabi banklar uchun ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdilar. G. Schepens (2016) Belgiya bank tizimida o'tkazilgan tabiiy eksperiment natijalari asosida qarz va kapital o'rtasidagi soliq nomutanosibligini kamaytirish banklarning kapitallashuv darajasini oshirishga xizmat qilishini empirik jihatdan tasdiqladi.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi ekspertlari R. de Mooij va M. Keen (2016) tomonidan tayyorlangan “Debt, Taxes, and Banks” tadqiqotida qarz mablag'larini moliyalashtirishga beriladigan soliq afzalliklari bank tizimida ortiqcha moliyaviy leveraj hamda tizimli moliyaviy xavflarning ortishiga olib kelishi mumkinligi asoslab berilgan. Mualliflar banklar soliqqa tortilishi mexanizmlarining makroprudensial oqibatlarini chuqur tahlil qilganlar.

Soliqning bank rentabelligiga bevosita ta'siri U. Albertazzi va L. Gambacorta tomonidan o'rganilgan bo'lib, ular bank foydasi va soliq tushumlarining iqtisodiy sikl bilan o'zaro bog'liqligini empirik jihatdan tahlil qilganlar. Tadqiqot natijalari soliqdan oldingi va soliqdan keyingi foyda ko'rsatkichlari makroiqtisodiy sharoitlarga sezgir ekanligini ko'rsatadi. A. Damodaran esa moliyaviy institutlarni baholash metodologiyasida soliqdan keyingi pul oqimlari va kapital qiymati modellarining markaziy o'rnini asoslab, samarali soliq stavkasini to'g'ri baholash kompaniya qiymatini aniqlashda muhim omillardan biri ekanligini ta'kidlagan.

Bank rentabelligini tahlil qilishning uslubiy asoslari T. Koch va S. MacDonald hamda J. F. Sinkey tadqiqotlarida batafsil yoritilgan. Mualliflar DuPont tahliliga asoslangan ROE dekompozitsiyasi modelini taklif etib, kapital rentabelligini foyda marjasi, aktivlardan foydalanish samaradorligi va moliyaviy leveraj komponentlariga ajratadilar. Mazkur modelda soliq yuki foyda marjasiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi mustaqil omil sifatida ajratib ko'rsatiladi, bu esa soliqning rentabellikka ta'sirini boshqa omillardan alohida baholash imkonini beradi.

O'zbekistonda soliq tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida 2019-yildan boshlab Soliq kodeksining yangi tahriri kuchga kirdi hamda foyda solig'i stavkalari va bank-moliya institutlarini soliqqa tortish mexanizmlari qayta ko'rib chiqildi.

Yuqorida keltirilgan nazariy va empirik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, soliqning banklar moliyaviy holatiga ta'sirini baholashda nominal soliq stavkasidan ko'ra, zaxiralash siyosati va moliyaviy natijalar bilan uzviy bog'liq holda shakllanadigan samarali soliq stavkasidan foydalanish ilmiy jihatdan asoslangan yondashuv hisoblanadi. Mazkur tadqiqot ushbu ilmiy bo'shliqni ATB “Sanoat-qurilish banki” misolida empirik tahlil asosida to'ldirishga qaratilgan.

<sup>1</sup> ATB “Sanoat-qurilish bank” (SQBN) 2020–2025-yillar moliyaviy hisobotlari va Freedom Broker tahliliy hisoboti asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda qiyosiy, koeffitsiyentli va dekompozitsion tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning empirik ma'lumotlar bazasi sifatida ATB "Sanoat-qurilish banki"ning 2020–2025-yillardagi ochiq moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari olindi. Foyda solig'ining bank moliyaviy holatiga ta'siri uch asosiy yo'nalishda baholandi: soliq yukining darajasi, uning rentabellik ko'rsatkichlariga ta'siri hamda kapital jamg'arilishiga ta'siri.

Soliq yukini baholashda samarali soliq stavkasi (Effective Tax Rate – ETR) ko'rsatkichidan foydalanildi. Mazkur ko'rsatkich soliq to'langunga qadar bo'lgan foydaga nisbatan amalda to'langan foyda solig'i ulushini ifodalaydi va nominal soliq stavkasidan farqli ravishda zaxiralash siyosati hamda soliq tuzatishlarining ta'sirini ham hisobga oladi.

$$ETR = (\text{Foyda solig'i} / \text{Soliq to'langunga qadar bo'lgan foyda}) \times 100 [1]$$

Soliqning rentabellikka ta'sirini boshqa omillardan ajratib baholash maqsadida DuPont tahliliga asoslangan yondashuv qo'llanildi. Bunda soliq yuki multiplikatori sof foydaning soliq to'langunga qadar bo'lgan foydaga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$\text{Soliq yuki multiplikatori} = \text{Sof foyda} / \text{Soliq to'langunga qadar bo'lgan foyda} = 1 - ETR [2]$$

Soliqning xususiy kapital va aktivlar rentabelligiga ta'sirini miqdoriy baholash uchun soliq to'langunga qadar va soliq to'langandan keyingi rentabellik ko'rsatkichlari hisoblandi. Ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq soliq yukining tegishli rentabellik ko'rsatkichiga ta'siri sifatida talqin qilindi.

Xususiy kapital rentabelligi (ROE) quyidagi formulalar asosida hisoblandi:

$$ROE_{(sof)} = (\text{Sof foyda} / \text{Xususiy kapital}) \times 100 [3]$$

$$ROE_{(soliq\ to'langunga\ qadar)} = (\text{Soliq to'langunga qadar bo'lgan foyda} / \text{Xususiy kapital}) \times 100 [4]$$

$$ROA_{(sof)} = (\text{Sof foyda} / \text{Jami aktivlar}) \times 100; [5]$$

$$ROA_{(soliq\ to'langunga\ qadar)} = (\text{Soliq to'langunga qadar bo'lgan foyda} / \text{Jami aktivlar}) \times 100 [6]$$

Olingan natijalar iqtisodiy mazmun nuqtai nazaridan tahlil qilinib, soliq yukining xavf qiymati (Cost of Risk) bilan o'zaro bog'liqligi hamda bankning ichki manbalar hisobidan kapital jamg'arish qobiliyatiga ta'siri baholandi. Shuningdek, foyda solig'ining bank moliyaviy barqarorligi va rentabelligiga ko'rsatadigan ta'siri kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi<sup>2</sup>.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Foyda solig'ining bank moliyaviy holatiga ta'sirini baholash soliq to'langunga qadar bo'lgan foyda, foyda solig'i va sof foyda ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilishdan boshlandi. Mazkur ko'rsatkichlar bank faoliyatining moliyaviy natijalariga soliq yukining ta'sirini aniqlash, rentabellik darajasidagi o'zgarishlarni baholash hamda kapital jamg'arilishi imkoniyatlarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

1-jadvalda ATB "Sanoat-qurilish banki"ning 2020–2025-yillardagi soliq to'langunga qadar bo'lgan foydasi, foyda solig'i va sof foydasi bo'yicha asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari keltirilgan (1-jadval).

1-jadval  
ATB "Sanoat-qurilish bank" soliq ko'rsatkichlari dinamikasi (mlrd so'm)<sup>3</sup>

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Soliq to'langunga qadar bo'lgan foyda	1 012	1 228	822	1 131	1 613	2 224
Foyda solig'i	214	230	233	220	309	344
Sof foyda	798	998	589	912	1 303	1 880
Samarali soliq stavkasi (ETR), %	21,1	18,7	28,3	19,5	19,2	15,5

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, bankning soliq to'langunga qadar bo'lgan foydasi tahlil qilinayotgan davr mobaynida umumiy o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, ushbu ko'rsatkich 2020-yildagi 1 012 mlrd so'mdan 2025-yilda 2 224 mlrd so'mga yetib, ikki baravardan ortiq oshgan. Shu bilan birga, foyda solig'i summasi mazkur davrda nisbatan mo'tadil sur'atlarda o'sib, 214 mlrd so'mdan 344 mlrd so'mga yetgan. Natijada bankning samarali soliq stavkasi (Effective Tax Rate – ETR) pasayish tendensiyasini ko'rsatgan. Jumladan, ETR 2020-yildagi 21,1 foizdan 2025-yilga kelib 15,5 foizgacha kamaygan.

<sup>2</sup> AKB "Sanoat-qurilish bank" 2020–2025-yillar foyda va zarar to'g'risidagi hisoboti asosida hisoblangan.

<sup>3</sup> ATB "Sanoat-qurilish bank" moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



Tahlil natijalariga ko'ra, alohida e'tiborga loyiq holat 2022-yilda kuzatilgan. Mazkur yilda samarali soliq stavkasi 28,3 foizgacha ko'tarilgan. Bunga asosiy sabab sifatida bankda xavf qiymatining (Cost of Risk) oshishi natijasida zaxiralar hajmining sezilarli ko'payishi va buning oqibatida soliq to'langunga qadar bo'lgan foydaning 822 mlrd so'mgacha qisqarishi xizmat qilgan. Shunga qaramay, foyda solig'i summasi 233 mlrd so'm darajasida shakllangan.

Mazkur holat bank faoliyatida muhim iqtisodiy qonuniyat mavjudligini ko'rsatadi. Natijada soliq to'langunga qadar bo'lgan foyda qisqargan davrlarda samarali soliq stavkasi nominal soliq stavkasidan yuqori shakllanishi ehtimoli ortadi. Bu esa yuqori xavf qiymati kuzatiladigan davrlarda soliq yukining bank sof foydasiga qo'shimcha bosim ko'rsatishiga olib keladi.

Soliq yukining rentabellik ko'rsatkichlariga ta'sirini yanada aniqroq baholash maqsadida keyingi bosqichda soliq to'langunga qadar va soliq to'langandan keyingi (sof) rentabellik ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslanadi (2-jadval).

2-jadval  
Soliqning ATB "Sanoat-qurilish bank" rentabelligiga ta'siri (%)<sup>4</sup>

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
ROE <sub>soliq to'langunga qadar bo'lgan</sub>	15,1	15,9	10,5	13,0	16,1	18,7
ROE <sub>sof</sub>	11,9	13,0	7,5	10,4	13,0	15,8
Soliq yukining ROE-ga ta'siri	3,2	2,9	3,0	2,6	3,1	2,9
ROA <sub>soliq to'langunga qadar bo'lgan</sub>	2,06	2,17	1,28	1,52	1,84	2,17
ROA <sub>sof</sub>	1,63	1,77	0,92	1,22	1,49	1,84
Soliq yukining ROA-ga ta'siri	0,43	0,40	0,36	0,30	0,35	0,33

2-jadval ma'lumotlari foyda solig'ining bank rentabelligiga ta'sirini DuPont dekompozitsiyasi nuqtai nazaridan miqdoriy jihatdan aniq ifodalaydi. Tahlil natijalariga ko'ra, foyda solig'i bankning xususiy kapital rentabelligini (ROE) har yili o'rtacha 2,6–3,2 foiz punktga pasaytirgan. Jumladan, 2025-yilda soliq to'langunga qadar bo'lgan ROE 18,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, soliq to'langandan keyin ushbu ko'rsatkich 15,8 foizga tushgan. Demak, foyda solig'i aksiyadorlar daromadlilikini 2,9 foiz punktga qisqartirgan.

Aktivlar rentabelligi (ROA) bo'yicha soliq yukining ta'siri 0,30–0,43 foiz punkt oralig'ida shakllangan bo'lib, eng yuqori ta'sir 2020-yilda, eng past ta'sir esa 2023-yilda kuzatilgan. Soliq yukining ROAga ta'siri ROEga nisbatan pastroq bo'lishi bankning moliyaviy leveraji bilan izohlanadi. Ya'ni, soliq yuki dastlab foyda marjasi orqali ROAni pasaytiradi, so'ngra moliyaviy leveraj multiplikatori ta'sirida ushbu pasayish ROE darajasida yanada kuchayadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, soliq yuki multiplikatori (1 – ETR) 2022-yilda eng past qiymatga, ya'ni 0,72 darajaga tushgan. Bu esa soliq to'langunga qadar bo'lgan foydaning atigi 72 foizi sof foyda sifatida bank ixtiyorida qolganligini anglatadi. 2025-yilda mazkur ko'rsatkich 0,85 ga yetib, soliq to'langandan keyin saqlanib qoladigan foyda ulushi sezilarli darajada oshgan.

Shu bilan birga, samarali soliq stavkasi yillar davomida sezilarli o'zgarishlarga uchragan bo'lsa-da, uning ROEga ta'siri nisbatan barqaror bo'lib, 2,6–3,2 foiz punkt oralig'ida saqlanib qolgan. Buning asosiy sababi shundaki, soliq yukining mutlaq ta'siri faqat soliq stavkasiga emas, balki foyda hajmiga ham bevosita bog'liqdir. Masalan, 2022-yilda samarali soliq stavkasi 28,3 foizni tashkil etgan bo'lsa-da, foyda hajmining nisbatan pastligi sababli ROEga ta'siri 3,0 foiz punkt darajasida shakllangan. Aksincha, 2025-yilda samarali soliq stavkasi 15,5 foizgacha pasaygan bo'lsa-da, foyda hajmining sezilarli o'sishi natijasida uning ROEga ta'siri 2,9 foiz punktini tashkil etgan. Mazkur natija de Mooij va Keen tomonidan ilgari surilgan soliq yukining foyda hajmiga mutanosib ravishda shakllanishi haqidagi nazariy qarashlarni empirik jihatdan tasdiqlaydi.

Foyda solig'ining kapital jamg'arilishiga ta'sirini baholash bankning moliyaviy barqarorligini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2020–2025-yillar davomida bank tomonidan jami 1 550 mlrd so'm foyda solig'i to'langan bo'lib, bu mazkur davrdagi soliq to'langunga qadar bo'lgan jami foydaning 19,3 foiziga tengdir. Ushbu mablag'lar bank ixtiyorida qolgan taqdirda, ular xususiy kapitalni mustahkamlash, kapitallashuv darajasini oshirish hamda kredit faoliyatini kengaytirish uchun qo'shimcha moliyaviy manba vazifasini bajarishi mumkin edi.

Shu bilan birga, foyda solig'i davlat byudjeti daromadlarining barqaror manbalaridan biri hisoblanadi. Davlat ishtirokidagi tizimli bank sifatida ATB "Sanoat-qurilish banki"ning soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va

4 ATB "Sanoat-qurilish bank" moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.



to'liq bajarishi uning moliyaviy intizomi, korporativ boshqaruv sifati hamda faoliyatining shaffofligini tavsiflaydi.

Bankning sof foydasi tarkibini tahlil qilish yana bir muhim jihatni namoyon etadi. Xususan, 2025-yildagi moliyaviy natijalarning sezilarli darajada yaxshilanishida ilgari shakllantirilgan ayrim zaxiralarning qaytarilishi ham muhim omillardan biri bo'lgan. Bunday holat soliqqa tortiladigan bazaning o'zgaruvchanligini oshiradi, chunki zaxiralarning qaytarilishi ayrim hollarda soliq maqsadlarida daromad sifatida e'tirof etilishi mumkin. Shu sababli bankni xususiylashtirishga tayyorlash jarayonida soliq rejalashtirish siyosati va zaxiralarni boshqarish mexanizmlarini o'zaro muvofiqlashtirish strategik ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, foyda solig'i ATB "Sanoat-qurilish banki"ning moliyaviy holatiga sezilarli, biroq boshqarilishi mumkin bo'lgan ta'sir ko'rsatgan. Tadqiqot natijalari samarali soliq stavkasi (ETR) 2020–2025-yillar davomida 15,5–28,3 foiz oralig'ida o'zgarib turganligini ko'rsatdi. Eng yuqori ko'rsatkich 2022-yilda kuzatilgan bo'lib, bu davrda xavf qiymatining (Cost of Risk) oshishi va zaxiralar hajmining ko'payishi muhim omil sifatida namoyon bo'lgan. Hisob-kitoblarga ko'ra, foyda solig'i bankning xususiy kapital rentabelligini (ROE) har yili o'rtacha 2,6–3,2 foiz punktga, aktivlar rentabelligini (ROA) esa 0,3–0,4 foiz punktga pasaytirgan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, foyda solig'ining bank moliyaviy holatiga ta'sirini baholashda nominal soliq stavkasidan ko'ra samarali soliq stavkasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki samarali soliq stavkasi zaxiralash siyosati, xavf qiymati va boshqa moliyaviy omillarning amaliy ta'sirini o'zida aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan, xususiylashtirishga tayyorgarlik jarayonida soliq omilini strategik boshqarish bankning investitsion jozibadorligini oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- soliqqa tortiladigan bazaning barqarorligini ta'minlash maqsadida zaxiralarni shakllantirish siyosatini amaldagi soliq qonunchiligi talablari bilan izchil muvofiqlashtirish hamda zaxiralarning soliq maqsadlarida e'tirof etilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish;
- samarali soliq stavkasining yillar kesimida keskin tebranishlarini kamaytirish maqsadida soliq rejalashtirish tizimini kuchaytirish va foyda taqsimoti siyosatini kelgusidagi xavf omillarini hisobga olgan holda optimallashtirish;
- foyda solig'i to'langandan keyin shakllanadigan sof foydaning kapitalga yo'naltiriladigan ulushini oshirish orqali bankning ichki manbalar hisobidan kapitallashuv darajasini mustahkamlash;
- xususiylashtirishga tayyorgarlik jarayonida xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) talablarini joriy etish bilan bog'liq holda soliq hisobi va moliyaviy hisob o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirish hamda soliq majburiyatlarining shaffofligini yanada oshirish;
- davlat ishtirokidagi tizimli bank sifatida soliq intizomini yuqori darajada saqlagan holda, amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan soliq imtiyozlari va investitsion rag'batlantirish mexanizmlaridan samarali foydalanish orqali soliq yukini maqbullashtirish.

Yuqoridagi takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi ATB "Sanoat-qurilish banki"ning soliq yukini maqbullashtirish, ichki manbalar hisobidan kapital jamg'arish imkoniyatlarini kengaytirish, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda bankning uzoq muddatli strategik rivojlanish maqsadlariga samarali erishishiga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 30.12.2019-yildagi "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RBQ-599-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/-4674011>
2. O'zbekiston Respublikasining 05.11.2019-yildagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi O'RBQ-580-sonli Qonuni, <https://lex.uz/ru/docs/-4581969>
3. Modigliani F., Miller M.H. Corporate Income Taxes and the Cost of Capital: A Correction // *American Economic Review*. – 1963. – Vol. 53, No. 3. – Pp. 433–443.
4. Miller M.H. Debt and Taxes // *Journal of Finance*. – 1977. – Vol. 32, No. 2. – Pp. 261–275.
5. Auerbach A.J. Taxation and Corporate Financial Policy // *Handbook of Public Economics*. – Vol. 3. – Amsterdam: Elsevier, 2002. – Pp. 1251–1292.
6. Graham J.R. How Big Are the Tax Benefits of Debt? // *Journal of Finance*. – 2000. – Vol. 55, No. 5. – Pp. 1901–1941.
7. Schepens G. Taxes and Bank Capital Structure // *Journal of Financial Economics*. – 2016. – Vol. 120, No. 3. – Pp. 585–600.



8. De Mooij R., Keen M. Debt, Taxes, and Banks // *Journal of Money, Credit and Banking*. – 2016. – Vol. 48, No. 1. – Pp. 5–33.
9. Damodaran A. *Valuing Financial Service Firms*. – New York: Stern School of Business, New York University, 2013.
10. Sinkey J.F. *Commercial Bank Financial Management*. – 6th ed. – New Jersey: Prentice Hall, 2002.
11. Koch T.W., MacDonald S.S. *Bank Management*. – 8th ed. – Boston: Cengage Learning, 2014.
12. Freedom Broker. *Update: RFB "Toshkent". ATB "Sanoat-qurilish banki" bo'yicha tahliliy sharh*. – 2026-yil 5-mart.
13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti
14. ATB "Sanoat-qurilish banki" rasmiy sayti va moliyaviy hisobotlari



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/2**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>